



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2414-1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 02.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Tuxtaboyeva Feruza Muratovna.,  
Ismoilov Ibroximjon Xakimjon o'g'li.,  
Xakimova Sevara Umarali qizi.,  
Xusanboyeva Xilola Hamidullo qizi.  
Andijon davlat universiteti  
Uzbekistan

### LABORATORIYA O'QUV MASHG'ULOT DARSLARIDA OSHLOVCHI MODDALARNI ANIQLASHGA OID

**Abstract:** This article discusses the properties of tannins, methods of their extraction, which plants contain tannins, and qualitative reactions to tannins in educational laboratories based on experiments.

**Keywords:** tannins, lignin, gallotannins, cotanides.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oshlovchi moddalarining xususiyatlari, olinish usullari, qaysi o'simliklarda oshlovchi moddalar borligi, o'quv laboratoriyalarda oshlovchi moddalarga xos sifat reaksiyalarini tajriba asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tanidlar, lignin, gallotaninlar, kotanidlar.

**Аннотация:** В данной статье на основе опыта описаны свойства пищевых добавок, способы производства, какие растения содержат пищевые добавки, качественные реакции, характерные для пищевых добавок, в учебных лабораториях на основе опыта.

**Ключевые слова:** таниды, лигнин, галлотаннины, котаниды.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Tukhtaboyeva , F., Ismoilov , I., Khakimova , S., & Khusanboyeva , K. ON THE DETERMINATION OF SOLVENTS IN LABORATORY TRAINING CLASSES. Universal International Scientific Journal, 1(9), 3–7. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1198>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14293364>

## Kirish

O‘simliklar tarkibidagi oshlovchi moddalar - fenollarning hosilalari: Hayvonlarning xom terisini oshlash xususiyatiga ega va ko‘p atomli fenollar unumidan tashkil topgan hamda o‘simliklardan olinadigan yuqori molekulali zaharsiz murakkab organik birikmalar o‘simlikning oshlovchi moddalari tanidlar deb ataladi. Tanidlar tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa ikki pallali o‘simliklar sinfiga kiruvchi oilalarda, masalan, ra‘noguldoshlar – Rosaceae, dukkaddoshlar – Fabaceae, qoraqatdoshlar – Saxifragaceae, torondoshlar Polygonaceae, toldoshlar – Salicaceae, qoraqayindoshlar – Fagaceae, pistadoshlar– Anacardiaceae va boshqa oilalar vakillari tarkibida ko‘p uchraydi. Tanidlar, ayniqsa g‘allalarda, o‘simliklarning patologik o‘simtalarida ko‘p (ba‘zan 70% dan oshadi) bo‘ladi. Oshlovchi moddalar o‘simliklarning hamma organlarida to‘planishi mumkin. Ular daraxt va butalar po‘stlog‘ida, yog‘och qismida hamda ko‘p yillik o‘t o‘simliklarning yer ostki organlarida ko‘p bo‘ladi. Ba‘zan tanidlar daraxt va butalar bargida, mevasida, o‘t o‘simliklarning barcha yer ustki qismida ham to‘planadi.

Oshlovchi moddalarning asosiy manbai bo‘lib Rumex, Rheum, Polygonum kabi o‘simliklar xizmat qiladi. Oshlovchi moddalar tuzilishiga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, ikkita katta gidrolizlanuvchi hamda gidrolizlanmaydigan guruhlarga bo‘linadi [1, 2, 3].


Ular tarkibidagi fenol halqalar tipiga va ularning o‘zaro bog‘lanishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi.

1. Gidrolizlanadigan oshlovchi moddalar. Bular kislota, ishqor va fermentlar ta‘sirida oson gidrolizlanib, uglevodlar glyukoza va gallat kislota hosil qiladi.

2. Gidrolizlanmaydigan yoki kondensirlanadigan oshlovchi moddalar. Bular tarkibida oz miqdorda uglevodlar bo‘ladi, mineral kislotalar ta‘sirida erimaydigan amorf birikmalar- flobafenlar hosil qiladi.

Lignin - o‘simliklar yog‘ochligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko‘p daraxtlar yog‘ochlik qismining 22-35% lignindan iborat. Yog‘ochlik mineral kislotalar bilan ishlanganda, tarkibidagi sellyuloza bilan gemitsellyuloza erib, ajralib chiqadi, lignin esa o‘zgarmay qoladi. Lignin suvda, organik erituvchilarda va kislotalarda erimaydi. Faqat

ishqorlar, bisulfit va sulfit kislotalar ta'sirida qisman parchalanadi va eritmaga o'tadi.



**2-rasm.** Lignin moddasini kimyoviy tuzilishi.

Oshlovchi moddalarning biosintezi: Oshlovchi moddalar asosan ikkita katta guruhdan – gidrolizlanuvchi va kondensatsiyalanuvchi tanidlardan tashkil topgan. Ular kimyoviy tuzilishiga ko'ra bir-biridan katta farq qiladi. Shuning uchun oshlovchi moddalar bu ikkala guruhining o'simliklardagi biosintezi turli yo'llar bilan boradi. Gidrolizlanuvchi oshlovchi moddalarning asosiy qismini oksibenzoat va boshqa oksiaromatik karbon kislotalarning qandlar, ko'p atomli spirtlar va shunga o'xshash moddalar bilan hosil qilgan murakkab birikmalari tashkil etadi. Hozirgi vaqtda o'simliklar to'qimasidagi aromatik birikmalarning biosintezi shu jarayonning oraliq moddasi bo'lgan shikim kislota orqali borishi to'liq isbotlangan. Shuning uchun gidrolizlanuvchi oshlovchi moddalar biosintezidagi boshlang'ich birikmalari bo'lgan oksibenzoat (n-oksibenzoat, protokatex va

gallat) kislotalar o'simlik to'qimasida shikim kislota orqali uglevodlardan hosil bo'lishi mumkin. Bu murakkab biosintezda geksozalardan asosan glyukoza, fruktoza va mannoza ishtirok etadi. Geksozalar avval o'zining enol shakllari orqali mezoinozitga o'tadi. Mezoinozit esa xin kislota orqali shikim kislota ga aylanadi

O'simlik to'qimasidagi oshlovchi moddalar biosintezi quyidagi uch davr o'z ichiga oladi:

1. Oldin oshlovchi moddalarning tashkil etuvchi eng oddiy komponentlari sifatida polifenollar va polifenol karbon kislotalar hosil bo'ladi.

2. Keynichalik ular qandlar bilan birikadi yoki kondensatsiya va boshqa o'zgarishlar orqali tanidlarning yuqori molekulyar birikmalariga hamda murakkab mahsulotlarga aylanadi.


3. Oxirida yana ham murakkab va suvda erimaydigan oshlovchi moddalar hosil bo'ladi. Oshlovchi moddalarning fizik va kimyoviy xossalari: O'simliklardan ajratib olingan oshlovchi moddalar tanidlarning bir qancha formalari aralashmasidan iborat, shu sababli ular amorf kukun (poroshok) holida bo'ladi. Sof holda ajratib olingan ba'zi komponentlar (masalan, katexinlar) esa kristall holda bo'ladi. Tanidlar suvda, har xil darajadagi spirtida va sirka kislota ning etil efirda yaxshi, boshqa organik eritmalarda yomon eriydi yoki butunlay

erimaydi. Oshlovchi moddalarning suvdagi eritmasi och qo'ng'ir rangli, hidsiz va burishtiruvchi mazali, kuchsiz kislotali xossaga ega bo'lgan kolloid eritma. Suvda eritilgan oshlovchi moddalarni oqsil modda, og'ir metallarning tuzlari, alkaloidlar va glikozidlarning eritmali yordamida cho'ktirish mumkin. Tanidlar ko'p atomli fenollarning unumlari bo'lib, boshqa fenollar singari temirning uch valentli tuzlari eritmasi bilan rangli (qora-yashil va qora-ko'k rangli) cho'kma hosil qiladi. Tanidlar havo kislorodi va fermentlar ta'sirida oksidlanib, qo'ng'ir rangli hamda sovuq suvda erimaydigan birikma – flobafenlarga aylanadi.

Oshlovchi moddalarning kimyoviy tarkibi: Turli o'simliklardan olingan oshlovchi moddalar kimyoviy tarkibi bo'yicha bir-biridan katta farq qiladi. Shunga qaramay, ularning tanidlarga xos umumiy belgilari bor. Barcha tanidlar molekulasida doimo bir nechta oksid guruh (OH) saqlovchi benzol yadrosi bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, barcha oshlovchi moddalar ko'p atomli fenollar – polifenollar unumidir. Benzol yadrosidagi oksid guruhlar soni kamida ikkita, qator – o'rta holatda (pirokatekinga o'xshash) yoki uchta bo'lib, qator vitsinal (pirogallolga o'xshash) joylashadi [4, 5].

Oshlovchi moddalarning sifat analizi: Analiz uchun anorning 10 % li ajratmasi tayyorlanadi.

Buning uchun anor po'stlog'idan 2 gr olib, chinni xovonchaga solinadi va etil spirtidan 10 ml quyib yaxshilab maydalanadi. Anor po'tlog'i yanchilib suyuq holatga keltiriladi. So'ngra ajratma teng ikkita probirkaga teng miqdorda quyiladi. Birinchi probirkadagi ajratmaga alkaloid qo'shilganda rangsiz cho'kma hosil bo'ladi. Birinchi probirkadagi ajratmaga  $FeCl_3$  dan bir tomchi qo'shganimizda qora-yashil eritma hosil bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi probirkadagi ajratmaga esa jelatinni 0,1 gr ni olib 9 ml suvda eritib olib qo'shganimizda esa rangsiz cho'kma hosil bo'ladi. Bu reaksiya orqali anor tarkibida ham oshlovchi moddalar borligini aniqlash mumkin.



**2-rasm.** Anor tarkibida oshlovchi moddalar borligini aniqlash

Xulosa qilib aytilganda, oshlovchi moddalar va tarkibida tanidlar bo'lgan mahsulotlardan tayyorlangan dorivor preparatlar tibbiyotda me'da-ichak (ich ketishi, kolit), og'iz va tomoq shilliq qavatlarining yallig'lanish (stomatit,

gingivit) kasalliklarini, teri kuyishi, surunkali hamda ichakdan qon oqishini to'xtatish uchun ekzema hamda yaralarni davolashda ishlatiladi. burishtiruvchi va bakteritsid vosita sifatida

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdikulov Z.U, Ablakulov N.A O'simliklarning fiziologik faol moddalari Guliston-2021.
2. Kodirov N.D, Xasanova G.R Tarkibida oshlovchi moddalar bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar Samarqand-2023.
3. H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov Farmakognezziya Toshkent 2008.
4. Po'latova T.P, Xolmatov H.X Farmokognoziya amaliyoti Toshkent 2002.
5. I.A.Sobirov Farmokognoziya Andijon 2023.